



O'ZBEK ADABIY TILI SAVODXONLIGI TA'LIMIDA "BEHBUDIY TAJRIBASI"

¹Shermatova Oydina Abdumutalovna

Namangan shahridagi Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi, Tel: 93 945-72-26

e-mail: shermatovao090909@gmail.com,

²Sadriddinov Abrorjon Sayfulla o'g'li

Namangan shahridagi Prezident maktabi tarix fani o'qituvchisi
Tel: 97 375-45-07,

e-mail: sadriddinovabrорjon@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7440947>

ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Behbudiy, ta'lim va til islohoti, o'zbek adabiy tili, o'zbek tili savodxonligi, jadidchilik harakati, "Oyina", "Ikki emas, to'rt til lozim", "Har millat o'z tili ila faxr etar", "Til masalasi", Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, tanqidiy fikrlash.

ABSTRACT

Milliy tafakkurning shakllanishi hamda milliy ruhga singib borishi bevosita milliy tilning taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. "Turkiston jadidlarining otasi" deya e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning bosh maqsadi va orzusi – Turkiston o'lkasi va xalqini qaramlik tanazzulidan olib chiqish, o'lkani dunyoning rivojlangan va yetakchi mamlakatlari qatoriga ko'tarish, milliy madaniyatni butun jahon ommasiga tanitishdan iborat edi. Uning asarlarida ko'tarilgan har bir masala va yechilishi lozim bo'lgan muammolar bugungi kunda ham bir necha o'rinlarda o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Maktab darsliklarida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi bilan tanishtirish va umr bosqichlaridagi eng muhim jihatlariga e'tibor qaratish inobatga olingan. Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilining shakllanishi, milliy til me'yorlari va umumelat tilining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni borasidagi allomaning fikr-mulohazalari tahlil etildi hamda o'ziga xos "Behbudiy tajribasi" o'rganildi.

Tarixdan ma'lumki, nafaqat Rossiya imperiyasi davrida, balki sobiq Sovet ittifoqi tuzumi davrida ham xalqimiz o'z ozodligi, ilm-ma'rifati, tili, dini, madaniyati, urf-odatlarini hamda qadriyatlaridan mahrum holda yashashga mahkum qilindi. XIX asr oxirlari XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan muhim masalalardan bir bu – til masalasidir. Milliy tilni saqlab qolish – xalq ma'naviyati va madaniyatini saqlab qolish

demak. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining 75 foizida milliy tilni himoya qilish maqsadida tilga oid davlat siyosati mavjud^[1]. Milliy tilning saqlanishi hamda uning qadr-qimmatini ana shu xalqning taraqqiyoti va kelajak taqdirini belgilaydi. U xalqni birlashtiribgina qolmay, har bir millat madaniyatining o'zagini tashkil etadi. XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo'layotgan ulkan madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar



sekinlik bilan bo'lsa-da, Turkiston o'lkasi hayotiga ham kirib kela boshlagan edi[2].

Olimlarning tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, Pushkin o'z asarlarida 21197 ta betakror so'z ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so'z ishlatgan. Abdurauf Fitrat o'zbek, ya'ni turkiy tilining chin targ'ibotchisi sifatida 1918-yilda Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hamkorlikda dastlabki ona tili darsligini yaratgan edilar[3]. Ularning bunday ulkan qadamlari uchun, shubhasiz, ilk jadid namoyondalarining o'zbek tili obro'sini qayta tiklash ishlari ilhom bag'ishlagan. Chunki jadid ma'rifatparvarlari Turkiston o'lkasi xalqlarining asosiy muloqot vositasi hamda milliy rivojlanish omili bo'lgan til masalasiga butun jamiyat e'tiborini qarata oldilar.

Bugungi kunga kelib, Turkiston jadid namoyondalarining merosi, nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari, balki butun dunyo tadqiqotchilarining e'tibor markaziga aylangan. Xususan, AQShning Kolumbiya, Michigan, Chikago, Kaliforniya universitetlari, Yaponiyaning Tokio xorijiy tadqiqotlar universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi, Rossiya islom instituti, Qozon federal universiteti, Turkiyaning Anqara, Eje, Istanbul universitetlari, Ozarbayjon Fanlar akademiyasi, Qo'lyozmalar instituti, Boku davlat universiteti, Qozog'istonning Yevroosiyo milliy universiteti, Turkmaniston Fanlar akademiyasi ana shunday tadqiqot markazlari sirasiga kiradi[4]. Dunyo ilm-fanida jadidchilik harakati, jadid adabiyotiga doir eng yangi ilmiy izlanishlar olti yo'nalishda olib borilmoqda[5]:

- **Birinchi yo'nalish:** jadidchilik falsafasi va mafkurasi;

- **Ikkinchi yo'nalish:** jadid ziyolilari ko'targan muammolar;

- **Uchinchi yo'nalish:** jadid adabiyoti tarmog'ida she'riyat, nasr, dramaturgiya, adabiy tanqid masalalari;

- **To'rtinchi yo'nalish:** jadid matbuoti va noshirlik faoliyati;

- **Beshinchi yo'nalish:** xayriya va adabiy jamiyatlar, vaqflar, fondlar faoliyati, yangi adabiy harakatlar, shart-sharoitlar;

- **Oltinchi yo'nalish:** jadid teatri va san'ati, o'zbek jadid dramasi va she'riyati.

Ikkinchi tadqiqot yo'nalishi, jadid ziyolilari ko'targan muammolarni qamrab olgan bo'lib, bular: milliy, diniy, ijtimoiy jihatlar, til, imlo, maorif, xotin-qizlar masalalarini nazarda tutadi[6]. Ahamiyatli tomoni, bu kabi muammolarga yechim topish jamiyatimizning kundalik hayotida bugun ham muhim o'rin tutmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy millatni ma'rifatli qilish maqsadi bilan yangi usuldagi maktablar ochish va bu maktablar uchun darsliklar yaratish, matbuotni yo'lga qo'yish va shu orqali o'zbek milliy tilini shakllantirish, adabiy til me'yorlarini qaror toptirishdek dolzarb harakatlarga ulkan hissa qo'shdi. Allomaning hozircha aniqlangan maqolalarining soni esa 300 ga yetadi[7].

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodiy faoliyati jamiyat hayotidagi jiddiy o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. Behbudiy Turkistonda maktab va maorif, matbuot va teatr sohalarida ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy faoliyat olib borgan. Qishloqlarda tashkil qilingan maktablar uchun bir qancha darsliklar yaratdi. Behbudiy o'z zamonasi yoshlariga murojaatida bunday yozadi: "Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib (maktablar) – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va



saodatning darvozasi. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'paytirmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirib madaniyatdan foydalanmas"[8]. Ziyolilarning yetakchisi, ma'rifat fidoyisi, millatparvar sifatida jon kuydirgan Behbudiy Samarqand shahrida 1913-yili "Samarqand" nomli gazeta va "Oyina" jurnalini o'z xalqini ilg'or millat sifatida ko'rish umidida nashr ettira boshlaydi. Ularda o'zini faqat tirikchilikka urgan millat ahvoli qanday bo'lishi haqida maqolalar yozadi. Elning haq-huquqini tanishiga turtki beruvchi fikrlarni ilgari suradi, millatdoshlarini milliy til qadrni yuksaltirishga undaydi, chet tillarini o'rganishga bel bog'lash lozimligini ta'kidlab va tarix masalalariga doir asosli mulohazalarini bayon qiladi[9].

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy til masalasiga katta e'tibor qaratdi. Birgina uning muharrirligi ostida nashr etilgan «Oyina» jurnali o'lka xalqlari orasida ma'rifat va madaniyatni yoyishda beqiyos xizmat ko'rsatdi. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan[10]. Xususan, ana shunday maqolalarning birida: *“Til masalasi” muharrirlaridan biri der: “Tillar zamon ila isloh bo'lur, birdan isloh etilmaslar”. Sodda til nima uchun kerak? Atrofindagi qavmu qarindoshi ilan so'ylashmoq uchun. Adabiy va ilmiy til nimaga kerak? Mavjud ilmu fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun*”, - deya ta'kidlab o'tadi[11].

O'lkada turkiy tilni rasmiy idora tili sifatida qabul qilish zarurligi xususida 1908-yilda Rossiya imperiyasi ma'murlariga: *«Turkistonning musulmon aholisi, asosan, turkiyda so'zlashadi. Janubiy tumanlarda esa yuz mingga yaqin forsiygo'y aholi bor. Shunga qaramay ular ham turkiy tilini yaxshi biladilar»*, - deya murojaat qiladi.

1909-yilda esa “Tarjimon”ga yo'llagan “Turkistonda maktab lisoni” nomli maqolasida Turkiston maktablarida ham turkiy, ham forsiy birga o'qitilishi maqsadga muvofiq degan xulosa beradi[12]. **1918-yilda u yana takror til masalasini yangi ma'murlar oldiga qo'yib, Turkistonda turkiy tillar ichida o'ziga xos nufuzga ega bo'lgan o'zbek tili davlat tili sifatida tan olinishini taklif qilgan edi**[13].

Mahmudxo'ja Behbudiyning qarashlarida millat ma'rifati va taraqqiyoti g'oyasi doimo ustuvorlik kasb etib kelgan. U milliylikni saqlab qolgan holda xalqning turmush tarzini, maktab va ma'rifatini zamonaviylashtirish jamiyat taraqqiyotining muhim belgisi deb hisoblagan. Mutafakkir maorif tizimi islohotini umummillat miqyosidagi muammo sifatida ko'tarib chiqadi. Chunki zamonaviy ijtimoiy tafakkurga ega yosh avlodni shakllantirishda yangi maktablarning ahamiyati beqiyos edi[14]. Hozirda ham o'rta maktablarda ona tili va adabiyot fanini o'qitishning maqsad-vazifalaridan asosiysi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdir. Xususan, bolalar ruhiyatini yaxshi bilgan Behbudiy yozma nutqni o'stirishda o'quvchilar uchun qulay va ularni qiziqtiradigan usul – xat yozdirish usulidan foydalanadi. Bu haqda u o'zining “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar maktublari” – darslikning bu nomdagi tarjimasini filologiya fanlari doktori, professor Zaynobiddin Abdurashidov taklif etgan[15]) darsligida to'liq bayon etib beradi.

Alloma «Ikki emas, to'rt til lozim», «Har millat o'z tili ila faxr etar»[16], «Til masalasi», «Sart so'zi majhuldir», «Sart so'zi ma'lum bo'lmadi» singari maqolalar yozadi. Ularda Behbudiy o'z davrining



muhim masalalari xususida fikr yuritishga harakat qildi[17]. Xususan, «Ikki emas, to'rt til lozim» maqolasi 1913-yilda yozilgan bo'lib, o'zi tashkil etgan «Oyina» jurnali (1913-yil 20-avgustidan nashr etila boshlangan) ning 1-sonida chop etilgan. Ushbu maqolada Behbudiy ko'p tilni bilish har birimiz uchun muhimligi va shu orqali dunyoga chiqish mumkinligiga ishora qiladi. U o'zbek tilidan tashqari forsoj, arab, rus va hatto Yevropa tillaridan birini bilish kerakligini ta'kidlaydi. Maqolalarida xorijiy tillarni o'rganishni siyosiy masala darajasiga ko'tarib, bu Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishga qodir ziyolilarni shakllantirishga yo'l ochishi to'g'risida bayon etadi[18]. Har bir millatning o'zligini anglashida, yosh avlodda milliy ong va tafakkurni shakllantirishda tilning o'rne beqiyosdir[19]. Behbudiy bu maqolada "turkiy" til deganda mahalliy xalqning aksariyati so'zlashadigan «o'zbekiy» tilni nazarda tutadi. Unga ko'ra, to'rt tilning o'rganishga sabablar sifatida quyidagilarni keltiradi[20]:

- 1) "turkiy, ya'ni o'zbekiy" – Turkiston xalqining aksariyati so'zlashadigan til;
 - 2) "forsiy" – "madrassa va udabo tilidir. Bu kungacha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur";
 - 3) "arabiy" – madrasalarda o'qitiladigan barcha shar'iy kitoblar ushbu tilda;
 - 4) "rusiy" – "zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat" qilishga yararlik zamona ilmini o'rganish uchun.
- "...Xulosa, bugun bizlarg'a to'rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy"[21].

1915-yilda "Oyina" jurnalining 11-12-sonlarida "Til masalasi" nomli yirik maqola chop etiladi. Maqolada turkiy tillar oilasiga mansub lahjalar, shevalar, imlo, ularning boyish manbayi, turkiy tilning sof (tabiiy)ligini saqlash shartlari, arab va forsoj tillaridan o'zlashgan so'zlarni turkiy tildan chiqarib yuborib, ularning turkiydagi muqobili bilan almashtirish oqibatlari, shuningdek, o'z qarashlari bilan xulosalaydi[22]. Xususan, arabchadan o'zbek tiliga ko'chgan so'zlarning ko'plik shaklini: "ulum, funun, ulamo, quzzo" tarzida emas, balki o'zbek tili grammatikasiga mos ravishda "fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar" shaklida yozish kerakligini taklif etadi[23]. Bu bilan esa tilda xorijiy so'zlardan imkon qadar kam foydalanish, o'zbek tilini soflicha saqlash lozimligini uqtiradi[24]. Bugungi kunda ko'pchiligimiz internet va ijtimoiy tarmoqlarda, yoxud barcha turdagi ommaviy axborot vositalarida adabiy til me'yorlarining qo'pol ravishda buzilayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ammo ta'kidlab o'tish lozimki, "Til masalalari" maqolasida aytilganidek: "Tillar zamon ila isloh bo'lur, birdan isloh bo'lmas"[25]. Ushbu maqolada kun tartibiga qo'yilgan masalalardan yana biri adabiy tilni shakllantirish va taraqqiy ettirish edi. "Til masalasi"ning ikkinchi qismi aynan shu muammoga bag'ishlangan. Behbudiy ushbu masalaga xulosa yasari ekan, kundalik matbuot nashrlari chop etilib, xalq orasida keng ommalashgan joyda adabiy til normalari muayyan me'yorga kirayotganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, matbuot tilining rivoji xalq jonli tilidan ustun darajada ekanini uqtirib o'tadi. Behbudiy matbuotga adabiy tilni shakllantirish vositasi sifatida qaraydi[26].



Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamentining internetdagi rasmiy sahifasi (til.gov.uz) da e'lon qilingan Umida Boyzoqovanning "Ona tilimizning qadri va qaddini yuksaltirish - barchamizning burchimiz" nomli maqolasida bugungi kundagi jamiyatimizda eng og'riqli masala o'rta tashlangan. Jumladan ushbu maqolada: "...Kundalik hayotimizda oddiy holga aylanib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotimizni misol qilaylik. Bugun aksariyat yurtidoshlarimiz kitob, gazeta yoki jurnal o'qimasligi mumkin, lekin ko'pchiligimiz internet nashrlarini kuzatamiz, ijtimoiy tarmoqlarda fikrlarimizni bayon qilamiz, kimlar bilandir yozishmalarni amalga oshiramiz. Bu borada "g" harfi o'rniga "g"ni, "q" o'rniga "k"ni, "o"ning o'rniga "u" harfini qo'llash yoki shevada yozish holatlari muhim jihat emasdek ko'rinadi go'yo. Lekin katta yo'llar, chorrahalaridagi tashqi reklamalar va hattoki ayrim yirik tashkilotlar peshtoqiga ilingan yozuvlardagi imloviy xatolar qayerdan paydo bo'lyapti, deb o'ylaysiz?! Internetda **xato yozuvlarni o'qiyverish kishi ongiga asta-sekin bu holatlarni me'yordagidek muhrlay boshlaydi.** Keyin esa o'sha me'yor tashkilot va korxonalarining ichki hujjatlariga ko'chadi. Ularni esa internetning faol foydalanuvchilari bo'lgan o'sha zamondoshlarimiz yozadilar. Muayyan muddat ijro uchun foydalangan hujjatlarga ko'z moslashib, adabiy til me'yorlari buziladi. Ko'chalardagi e'lonlar, tashqi reklamalar, yo'l ko'rsatkichlar kabilarda til savodsizligi keng quloch yozib, yana-da ommalashib boraveradi", - deyiladi. Biz ham maqola muallifining fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz hamda adabiy til me'yorlariga amal qilmaslik jamiyatimizning bugungi kundagi eng

og'riqli nuqtasiga aylanib qolayotganligini yana bir bor ta'kidlamoqchimiz. XXI asr shunday zamonki, orqada qolayotgan xalq va davlatlarni qaramlikka tushirishning katta imkoniyatlari mavjud. Shunday ekan, avvalo, millat monolitligini ta'minlashda birinchi jangovar qurolimiz - tilimiz orqali birlashishimiz va so'ngra qo'lni qo'lga berib taraqqiyotimizni ta'minlaydigan global masalalarni hal qilishga davlat rahbarimiz rahnamoligida zarbdor kuch bo'lib kirishuvimizni davrning o'zi talab qilib turibdi[27].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, barcha jadid ziyolilari xalq ommasi ma'rifatini ko'tarish, milliy ongini rivojlantirish, milliy tilni saqlash, milliy birlikni qaror toptirish orqali - milliy mustaqillikka erishish g'oyasini ilgari surdilar. Ma'rifatparvar yetakchilarimiz milliy tilni saqlab qolish, ayni vaqtda, zamonaviy ilmlarni o'rganish asnosida xalqimiz shuuriga Vatanni ozod va obod qilish g'oyalarini singdirib bordilar. Biz jadid namoyondalarimiz, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zbek adabiy tilini shakllantirish hamda tilimizning sofligini saqlab qolish masalalari yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalarini chuqur o'rganishni hamda ajdodlarimiz tomonidan boshlangan ushbu ishlarni o'z tadqiqot manbai sifatida bugun shu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy soha vakillari qatorida biz kabi ustozlar ham millat rivoji uchun shaxsiy namuna ko'rsatishlarini istab qolamiz. Alloma ijodi bilan chuqur tanishar ekanmiz, uning xalq maorifidagi faoliyatiga **"Behbudiy tajribasi"** (ta'kid bizniki - O.Sh., A.S.) deya nom berishni lozim deb topdik.

"Behbudiy tajribasi"ning asoslaridan biri sifatida o'quvchilarning og'zaki va



yo'zma nutqini milliy adabiy tilga tayangan holda shakllantirishdagi o'ziga xos uslubiyatni namuna qilib ko'rsatish mumkin. Xususan, yo'zma nuqtani rivojlantirish maqsadida alloma qo'llagan maktub uslubi o'quvchilarga o'z fikrini erkin va ravon bayon etishga o'rgatgan. Mazkur usul, ayni vaqtda ulardan imlo savodxonligini ham talab etar edi. Biz bu kabi uslublarga ijodiy yondashib, "O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim" texnologiyasi asosida ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda foydalanishimiz mumkin.

Allomaning ilmiy merosini tadqiq etgan har bir inson, guvohlik bera oladiki, Mahmudxo'ja Behbudiy *millat taraqqiyotining boshlanishi, madaniyat va saodatining darvozasi* deb maktabni ko'rsatadi. Rivojlanish yo'lida ta'limni isloh etmaguncha taraqqiy etib bo'lmasligini uqtirishga harakat qiladi. Behbudiy yangi usuldagi maktablar tashkil etish orqali millatni millat bo'lib yetishuvdagi muhit va shart-sharoitlarni qaror toptirishga urinadi. So'nggi yillarda yurtimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ma'rifatparvarlarimiz orzu-maqсадlarining ro'yobidir. Prezidentimiz nutqlaridan birida: "...Buyuk pedagogimiz Abdulla Avloniy "Biz uchun ta'lim – eng muhim masala, baxtimiz, hayotimiz, taqdirimiz unga bog'liq" degan edi. Darhaqiqat, ta'limni o'zgartirsak, ta'lim insonni o'zgartiradi. Inson o'zgarsa, butun

jamiyatimiz o'zgaradi...», – deya ta'kidlangan edi[28]. Darhaqiqat, bugungi kunda Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan maqsadlarning yaqqol namunasi sifatida namoyon bo'lmoqda[29]. Ammo yana bir muhim jihatni ham yoddan chiqarmaslik lozim: "Bolaning qayerda o'qiyotgani, uning ijtimoiy kelib chiqishi umuman ahamiyatga ega emas. Uning iste'dodi muhim. Ota-ona farzandining bilim olishiga e'tibor qaratlsa, u bilan shug'ullansa, bola, albatta, ilmga qiziqadi, muvaffaqiyatga erishadi"[30].

Prezidentimizning 2020-yil 30-sentabrdagi "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida" Farmoniga muvofiq, milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shgan mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiy "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi[31] hamda shu yilda allomaning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlandi. Yubiley arafasida bir nechta jadidshunos tadqiqotchilar tomonidan buyuk bobokalonimizning uy-muzeyi hamda uning bosmaxonasini tiklash, «Ma'rifatparvarlar uyi» ga asos solish kabi tarbiyaviy ahamiyati va mohiyati yuqori bo'lgan takliflar ilgari surildi[32].

Butun umrini jaholat va zulmatni ilm-ma'rifat yog'dusi bilan yoritishga bag'ishlagan Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatini bugungi yoshlarimizga o'rnak sifatida ko'rsatishimiz lozimdir.

References:

- [1] Narimonov B. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur // <https://yuz.uz/uz/news/milliy-tilni-yoqotmak-millatning-ruhini-yoqotmakdur>
- [2] Ibragimov S.I. Jadidchilik harakati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1. Elektron manba: www.oriens.uz. Aprel, 2021. – B. 120.



- [3] Abduxakimova M. Ma'rifatparvarlar dil isyoniga – jo'r bo'lgan, tabarruk, turkona tilim! // <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/advisory/87>
- [4] Мурод Хайриддин. Учинчи Ренессанс - жадидлар маслаги // <https://yuz.uz/news/uchinchi-renessans--jadidlar-maslagi>
- [5] Назарова Ш. “Учинчи Ренессанс — жадидлар маслаги” // Янги Ўзбекистон № 227 (749), 2022 йил 5 ноябрь. <https://yuz.uz/file/newspaper/dc3650aa3d7478fbd53c5bf558bf1bf7.pdf>
- [6] Назарова Ш. “Учинчи Ренессанс — жадидлар маслаги” // Янги Ўзбекистон № 227 (749), 2022 йил 5 ноябрь. <https://yuz.uz/file/newspaper/dc3650aa3d7478fbd53c5bf558bf1bf7.pdf>
- [7] https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo%CA%BBja_Behbudiy
- [8] Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – B. 176.
- [9] Adabiyot: darslik-majmua / B. To'xliyev va boshq. – T., 2017. – B. 4.
- [10] Hakimov A. Mahmudxo'ja Behbudiy: Turkiston jadidchilik harakatining yo'l boshchisi, milliy ma'rifat rahnamosi // <https://yuz.uz/uz/news/mahmudxoja-behbudiy-turkiston-jadidchilik-harakatining-yolboshchisi-milliy-marifat-rahnamosi>
- [11] «Oyna» jurnali, 1915 yil, 11-12-sonlar. 274—277, 306-311-betlar // <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/mahmudxo-ja-behbudiy-til-masalasi-1915>
- [12] Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 97.
- [13] Abdiyev M. Behbudiy o'zbek tilini davlat tili sifatida tan olinishi uchun kurashganmide? // <https://zarnews.uz/uz/post/behbudiy-oz-davrida-ozbek-tilini-davlat-tili-sifatida-tan-olinishi-uchun-kurashganmide>
- [14] Alimova D. Millat ehtiyojiga baxshida umr // Янги Ўзбекистон. 2020-йил 18-ноябр (222-сон).
- [15] Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 34.
- [16] Ushbu nomdagi maqola “Oyina” jurnalining 1914-yildagi 35-sonida chop etilgan. Manba: Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 14.
- [17] Boyzoqova U. Ona tilimizning qadri va qaddini yuksaltirish - barchamizning burchimiz // <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/advisory/17>
- [18] Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 101.
- [19] Boyzoqova U. Ona tilimizning qadri va qaddini yuksaltirish - barchamizning burchimiz // <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/advisory/17>
- [20] Mahmudxo'ja Behbudiyning til borasidagi qarashlari // <https://zamin.uz/uz/jamiyat/79822-mahmudxoja-behbudiyning-til-borasidagi-qarashlari.html>
- [21] Behbudiy B. Ikki emas, to'rt til lozim // “Oyina” jurnali, 1913-yil 10-avgust. – №1. Tanlangan asarlar. Jild I. – T.: Akademnashr, 2018 – B. 396.
- [22] Abduxakimova M. Ma'rifatparvarlar dil isyoniga – jo'r bo'lgan, tabarruk, turkona tilim! // <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/advisory/87>



- [23] Boyzoqova U. Ona tilimizning qadri va qaddini yuksaltirish - barchamizning burchimiz // <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/advisory/17>
- [24] Abdullayeva X. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur // <https://saviya.uz/hayot/nigoh/milliy-tilni-yoqotmak-millatning-ruhini-yoqotmakdur/>
- [25] Rahmatova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va til masalasi // <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5026.htm>
- [26] Boyzoqova U. Ona tilimizning qadri va qaddini yuksaltirish - barchamizning burchimiz // <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/advisory/17>
- [27] Rahimov J. Tilsiz el suvsiz buloqdir // <https://yuz.uz/uz/news/milliy-tilni-yoqotmak-millatning-ruhini-yoqotmakdur?view=tilsiz-el-suvsiz-buloqdir->
- [28] <https://indiaeducationdiary.in/international-literacy-day-2021-and-unescos-support-to-uzbekistans-government-in-prioritizing-access-to-education/>
- [29] PIIMA: the 'limitless' Presidential Schools changing education in Uzbekistan // PIIMA: the 'limitless' Presidential Schools changing education in Uzbekistan | Cambridge University Press & Assessment
- [30] Umarova H. "Ta'lim - taraqqiyot poydevori" // Tayanch info. – № 1-2 (48). – T., 2022. – B. 8. Elektron manba: "Tayanch info" jurnalida Agentlik direktori Hilola Umarova haqida maqola chop etildi (piima.uz)
- [31] https://www.uza.uz/uz/posts/mahmudxozha-behbudiy-millat-allomasi_191360
- [32] To'raxo'jayeva R. Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yilligi oldidan: Ulug' alloma shajarasi // Elektron manba: <https://zarnews.uz/uz/post/mahmudxoja-behbudiyning-145-yilligi-oldidan-ulug-alloma-shajarasi>